



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
REKTORINING  
BUYRUG‘I**

2023 yil “25” aprel      00527 - son

**“Oliy o‘quv yurtlarida bolalar kasalliklari fanini o‘qitishda yangi pedagogik  
texnologiya usullarini takomillashtirish” mavzusidagi Xalqaro o‘quv-uslubiy  
konferensiyasini o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi “Ilmiy–innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 24-sonli qarorida belgilangan topshiriqlar hamda Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o‘rinlarda – TTA) rektorining 2023-yil 15-fevraldagi 48-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. “Oliy o‘quv yurtlarida bolalar kasalliklari fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiya usullarini takomillashtirish” mavzusidagi Xalqaro o‘quv-uslubiy konferensiyasi (keyingi o‘rinlarda – Xalqaro konferensiya) xorijiy mamlakatlarning yetakchi tashkilotlari bilan TTA o‘rtasida imzolangan memorandumlar doirasida ilm - fan sohasida o‘rnatilgan samarali xalqaro aloqalarni yanada mustahkamlash va o‘zaro tajriba almashish maqsadida Xalqaro konferensiya Astana tibbiyot universiteti bilan hamkorlikda 2023-yil 12-mayda TTAda o‘tkazilsin.

2. Xalqaro konferensiyaga tayyorgarlik ko‘rish, tashkillashtirish va uni o‘tkazish uchun mas’ul etib oilaviy tibbiyotda bolalar kasalliklari kafedrasini mudiri professor, t.f.d. I.A. Karimjonov, oilaviy tibbiyotda bolalar kasalliklari kafedrasini dotsentlari U.N.Karimova va G.A.Yusupovalar belgilansin.

3. Quyidagilar:

Xalqaro konferensiya dasturi 1-ilovaga muvofiq, Xalqaro konferensiyani o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy komissiya tarkibi 2-ilovaga muvofiq, Xalqaro konferensiya ma’ruzachilarining ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, oilaviy tibbiyotda bolalar kasalliklari kafedrasini mudiri professor, t.f.d. I.A. Karimjonov, barcha fakultet dekanlari va kafedra mudirlari:

TTAda faoliyat yuritayotgan barcha professor-o‘qituvchilarini mazkur buyruq bilan tanishtirsin;

mazkur buyruq ilovalarida keltirilgan ro‘yxatlar bo‘yicha Xalqaro konferensiyada ishtirok etishi ko‘rsatilgan TTA xodimlarining ishtirokini ta’minlasin.

5. O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova:

Xalqaro konferensiya yakunlanganidan so'ng unga oid ma'lumotlar haqida 5 (besh) kun muddat ichida Sog'liqni saqlash vazirligining Fan va ta'lim boshqarmasiga hisobot topshirsin;

Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga sertifikatlarni tayyorlash va konferensiya ishtirokchilarini o'rnatilgan tartibda sertifikatlar bilan ta'minlashni amalga oshirsin.

**6.** Mazkur buyruqning ijrosini ta'minlash O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov zimmasiga yuklatilsin.

**Rektor**



**A.Shadmanov**

**Buyruq kelishuvi**

**Tayyorladi:**

**I.Karimdjanov**

**Kafedra mudiri**

**Kelishildi:**

**Sh.Islomqulova**

**Yuriskonsult**

**Sh.Boymuradov**

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor**

**F.Azizova**

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo'yicha prorektor**

**F.Azizova**

**Boshqarma boshlig'i**

**J.Israilov**

**Halqaro hamkorlik bo'yicha  
prorektor**